

B
EGZ




ENG KATTA SEHR



Bir sehrgar bo'lgan ekan. Uning qo'lidan
hamma ish kelar ekan. Istasa, tap-taqir cho'l
o'rnida dengiz yarata olar ekan. Yalang joyda
qasr paydo qilish ham uning uchun arzima-
gan yumush ekan. Ammo bu ishlardan
sehrgarning ko'ngli sira to'lmas ekan.



Kunlarning birida u odamlarning baxt haqidagi fikrlarini bilmoqchi bo'libdi. Axir ular sehrgarlikdan be-xabar bo'lsalar ham baxtli yasha-salar ekanlar-da! Sehrgar yo'lida yelkasiga og'ir qop ortmoqlagan ikkinchini uchratib qolibdi.



— Zildaymi? — so'rabdi sehrGAR.
— Zilday bo'lganda-chi! — deb-
di yo'lovchi.

— Istasang, yukingni yengil-
latib beraman. Ter ham to'kmay-
san, mashaqqat ham chekmaysan,
yumushing osongina amalga oshadi.
— debdi sehrGAR.



— Yo‘q, menga bunaqa ko‘makning keragi yo‘q,
— debdi yuk ko‘targan yo‘lovchi.

Sehrgar yo‘lovchining javobidan hayron bo‘libdi:

— Axir, qop judayam og‘ir deyapsan-ku!

— Shunday bo‘lmasa bo‘lmaydi! — debdi
yo‘lovchi. — Hamma narsa osongina bitaversa,
nimadan sevinib, nimadan xursand bo‘laman?



— Gaping rost, — debdi sehrgar. —
Mana, mening qo'limdan hamma ish
keladi, ammo sira quvona olmayman.

— Uy ham qura olasanmi? — so'rabdi
yo'lovchi ishonqiramay.




Sehrgar javob berish o'rniga qo'lini yengilgina silkitibdi, shu onda ularning yonida mo'risidan pag'a-pag'a tutun burqsib turgan uy paydo bo'libdi.

— Qoyil! — debdi yo'lovchi entikib, keyin qo'shib qo'yibdi:

— Bunaqa uyni... o'z qo'ling bilan qurganingga ne yetsin...

— Sen haqiqatan ham baxtlimisan? — so'rabdi sehrgar.





— Qopni manzilga olib
borsam, mendan baxtli odam
bo'lmaydi,— javob beribdi yo'lovchi.

— Uni manzilga men eltisha qolay
bo'lmasa, — debdi sehrgar va qopni
yelkasiga ortmoqlab olibdi.

Manzil olis ekan. Ular ketaveribdilar, ketaveribdilar.

— Hali uzoqmi? — so'rabdi terga
bota boshlagan sehrgar.

— Uzoq, — javob beribdi qop egasi.

— Dam olsakmikan? — so'rabdi sehrgar hansirab.





— Yaxshisi, yo'ldan qolmaganimiz ma'qul, — debdi unga javoban yo'lovchi. — Yo'qsa, quvonchimiz tez tarqab ketadi.

Hayotida aqalli bir marta bo'lsin, rostakamiga quvonmoqchi bo'lgan sehrgar yukni yerga qo'ymay yana yo'l yurishda davom etibdi.

Ular nihoyat manzilga yetib kelibdilar.

— Keldik, — debdi yo'lovchi sehgarga.

Sehrgar qopni yelkasidan tushiribdi, u horib-charchagan bo'lsa ham, yuzida tabassum o'ynab, yerga uzala tushib yotib olibdi.

— Endi baxt nimaligini bilgandirsan? —
so'rabdi yo'lovchi.





— Ha! — debdi sehrgar pesha-
nasidagi marjon-marjon terlarini
artar ekan. — Baxt nimaligini ang-
ladim, buning uchun senga katta
rahmat, birodar.

— Beminnat yordaming uchun
senga ham tashakkur! — debdi
yo'lovchi.



Sehrgar o'sha kundan boshlab jodu ishlarini butunlay yig'ishtiribdi. O'z qo'li, o'z mehnati bilan uy qura boshlabdi. Quyosh chiqmasdan burun bog'ga yo'l oladigan, dalalarga suv taraydigan bo'libdi. U ishlarmishu qo'shiq aytarmish, qo'shiq aytarmishu ishlar emish. Zerikarli kunlar quvonchlarga to'lib o'tadigan bo'libdi.



Bolalar!

Yo'lda qo'shiq aytib, mehnat qilayotgan odamni mabodo uchratib qolsangiz, albatta so'rashib, jilmayib qo'ying. Zero, hamma yumushni bajarish qo'lidan keladigan sehrGAR o'sha odam bo'lsa ajabmas...

